TILSHUNOSLIK

A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi (SamDCHTI tayanch doktoranti; azamovagulnoza549@gmail.com)

PRETSEDENT BIRLIKLARDA DENOTATIV VA KONNOTATIV MA'NO

Annotatsiya. *Zamonaviy hayotning shiddatli sur'ati o'quvchiga davriy nashrlarda chop etilgan barcha matnlar bilan to'liq tanishish imkonini bermaydi, shuning uchun u zarur yoki qiziqarli ma'lumotlarni qidirishda, birinchi navbatda, sarlavha va undan keyingi matn o'rtasida semantik bog'liqlik bor deb taxmin qilgan holda, sarlavhaga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada gazeta sarlavhalarida qo'llanilgan pretsedent birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *pretsedent birlik, denotativ va konnotativ ma'no, denotat, gazeta sarlavhalari.*

ДЕНОТАТИВНОЕ И КОННОТАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ЕДИНИЦАХ

Аннотация. *Напряженный темп современной жизни не позволяет читателю в полной мере ознакомиться со всеми текстами, публикуемыми в периодических изданиях, поэтому, при поиске необходимой или интересной информации, он в первую очередь обращает внимание на заголовок, предполагая наличие семантической связи между заголовком и следующим за ним текстом. В данной статье исследуются денотативное и коннотативное значения предшествующих единиц, используемых в газетных заголовках.*

Ключевые слова: *предшествующая единица, денотативное и коннотативное значение, денотация, газетные заголовки.*

DENOTATIVE AND CONNOTATIVE MEANING IN PRECEDENT UNITS

Annotation. *The hectic pace of modern life does not allow the reader to fully familiarize himself with all the texts published in periodicals, therefore, when searching for necessary or interesting information, he first of all pays attention to the title, assuming that there is a semantic connection between the title and the text that follows it. This article studies the denotative and connotative meanings of precedent units used in newspaper headlines.*

Keywords: *precedent unit, denotative and connotative meaning, denotation, newspaper headlines.*

Kirish. Pretsedent birliklar – muayyan xalq, jamiyat vakillari uchun juda yaxshi tanish bo'lgan, milliy xotirada muhrlangan tayyor iboralar, maqollar, mashhur asarlardan iqtiboslar, tarixiy shaxslar yoki afsonaviy personajlarning nomlaridir. Gazeta sarlavhalarida ular o'quvchi e'tiborini darhol tortish va matnga hissiy-eksperessiv bo'yoq berish uchun qo'llanadi.

Pretsedent birliklar tahlilida denotativ ma'no faqat boshlang'ich nuqta ya'ni tarixiy yoki faktik asos vazifasini o'taydi. Asosiy kommunikativ va badiiy yuk esa konnotativ ma'noga tushadi. Aynan konnotatsiya orqali matnga emotsionallik, ixchamlik va chuqur milliy-madaniy ma'no singdiriladi. Tarjima jarayonida ham pretsedent birliklarning denotatini emas, balki ularning konnotativ ekvivalentini saqlab qolish eng murakkab vazifa hisoblanadi.

Lug'aviy birliklar uzual va konnotativ (okkozional) ma'nolariga ko'ra, til yoki nutq hodisalari sifatida farqlanadi. Uzual ma'nolar lug'aviy birliklarning umumtilda rasmiylashgan semantik qiymati bo'lib, shu ma'no asosida so'zlar til birliklari sanaladi. So'zlarning konnotativ (okkozional) ma'nolari esa nutqda individual tarzda vujudga keladi, umumxalq tilida ommaviy tarzda rasmiylashmaydi. Bunday ma'nolarga ko'ra, so'z, ya'ni lug'aviy birliklar nutq hodisasi sifatida tavsiflanadi [1;27-b.].

So'z ma'nosining o'ziga xos murakkab va serqirra mazmuniy qurilma ekanligi shundaki, u bir qator ichki unsurlardan tarkib topadi. So'zning grammatik, uslubiy va pragmatik ma'nolari ham shu qurilma tarkibida bo'ladi. Bu qurilma so'zning semantik strukturasi deyiladi. So'z semantik strukturasining markazida lug'aviy ma'no turadi. Lug'aviy ma'no vositasida obyektiv borliqning muayyan real yoxud noreal narsa-hodisalari, shu narsa-hodisalarning belgi xususiyatlari, ularning o'zaro munosabatlari va boshqalar anglashiladi. Lug'aviy ma'no, yuqorida ham aytilganidek, biror-bir denotatsiyaga asoslanadi. Denotatsiyaning asosini denotat tashkil qiladi. Denotat deyilganda, so'z ma'nosining nolisoniy asosi tushuniladi. Bu asos bizni qurshab turgan borliq narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlaridir. Masalan, chiroq so'zining denotati ma'lum bir kichik hududni yorituvchi predmetdir. Denotativ ma'noni referent ma'no deb ham yuritiladi. Chunki denotat va referent o'zaro dublet atamalardir. Lug'aviy ma'nolar yordamida obyektiv borliqning narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlari atalgani, nomlangani uchun, ular fanda nominativ ma'nolar sifatida ham rasmiylashgan [1;28-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pretsedent birliklarning gazeta sarlavhalarida ifodalanadigan denotativ va konnotativ ma'nolarini aniqlash maqsadida kompleks lingvistik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini semantika, pragmatika, lingvokulturologiya va intertekstuallik nazariyalari tashkil etdi [1;5;6].

Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv), semantik, kontekstual va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida pretsedent birliklarning strukturaviy xususiyatlari yoritildi. Semantik tahlil orqali ularning denotativ va konnotativ ma'nolari ajratib ko'rsatildi. Kontekstual tahlil asosida sarlavha va maqola mazmuni o'rtasidagi ma'no munosabatlari aniqlandi. Qiyosiy metod vositasida fransuz va o'zbek matbuotidagi pretsedent birliklarning qo'llanish usullari solishtirildi.

Empirik material sifatida 2025-yilda "Le Monde', Le Figaro, "Xalq so'zi" va "Yangi O'zbekiston" nashrlarida e'lon qilingan sarlavhalardan foydalanildi. Olingan natijalar induktiv va deduktiv tahlil asosida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. So'zning mazmun strukturasida denotativ ma'nodan tashqari, konnotativ ma'no ham mavjud bo'ladi. Konnotativ ma'no nominativ ma'noga "eshdosh" ustama ma'nodir. Konnotativ ma'no tufayli so'z emotsional-ekspressiv qiymatga ega bo'ladi. U emotsional-ekspressiv 29 bo'yoqdorlik ham deyiladi. Konnotativ ma'noga ko'ra, so'zlarning pragmatik-uslubiy vazifasi belgilanadi. Konnotativ ma'nolar tufayli vujudga keluvchi emotsionalekspressivlikning ijobiy va salbiy turlari mavjud. Ularni ijobiy bo'yoqdorlik yoxud salbiy bo'yoqdorlik deb ham ataladi. Konnotativ ma'nolarning ifodalanish usul va vositalari ham har xil. Lug'at tarkibining ayrim qatlam so'zlari yo salbiy, yo ijobiy xarakterdagi bo'yoqdorlikka ega bo'ladi [1;29-b.].

Tilshunoslikda so'z ma'nosining denotativ va konnotativ tomonlari o'rtasidagi nisbat haqida turli xil qarashlar mavjud. Qo'shimcha kontekstual semantika, qoida tariqasida, kattaroq axborot hajmiga ega bo'lishiga qaramay, konnotativ ma'nolar denotativ ma'nolarga nisbatan doimo ikkinchi darajali deb qabul qilinadi. Konnotativ ma'no so'zga ekspressiv, hissiy, baholovchi funksiyalarni beradi. Konnotatsiyalarga misollar: qorli kuchli shamolni anglatuvchi «metel» (bo'ron) so'zi quyidagi birikmalarda konnotatsiya bo'lib xizmat qilishi mumkin: «pux krujilsya metelyu» (parlar bo'ron kabi girdob soldi), «metel ognennix iskr vzvilas v nebo» (olovli uchqunlar bo'roni osmonga ko'tarildi); «la tortue» (toshbaqa) so'zi harakatning sustligi, sekinlik konnotatsiyalariga ega; «le coq» (xo'roz) – mag'rurlik, «le vent» (shamol) – beqarorlik, tezlik. «Konnotatsiya» tushunchasining dastlabki ta'rifiga zid ravishda, bu ma'no so'zni mustaqil ko'rib chiqqanda, kontekstdan tashqarida ham namoyon bo'lishi mumkin, u holda asosiy va ekspressiv ma'nolarning shunchalik kuchli qo'shilib ketishi haqida gap ketadiki, ularning ikkalasi ham ushbu til birligining ichki qobig'iga kiradi. Masalan: odam ma'nosidagi «tip» so'zida salbiy konnotatsiya leksik ma'no o'zagiga mahkam o'rnashgan va hozirgi bosqichda so'z ushbu bo'yoqsiz qo'llanilishi mumkin emas. Konnotativ axborot denotativ axborotga va denotativ axborot konnotativ axborotga o'tkazilishi mumkin. Biroq ushbu ta'kid universal emas, chunki diffuz (tarqoq) konnotativ ma'nolar, ko'pincha, to'g'ridan to'g'ri tavsif (denotatsiya) orqali berilishi mumkin, har qanday denotativ axborotni konnotativ darajaga o'tkazish esa shubhalidir" [10;3-b.].

Tor ixtisoslashgan terminning ma'nosini konnotativ tarzda ifodalashning deyarli imkoni yo'q. Konnotativ va denotativ axborotlarning ehtimoliy nisbatlari tipologiyasi ham qiziqarlidir. Masalan, til tizimida shunday nisbatlar mustahkamlangan: obyekt haqidagi ma'lumotlar denotativ tarzda uzatilganda, ushbu obyektni ko'rib chiqayotgan shaxs haqidagi axborot konnotativ tarzda xabar qilinadi; biror bir xabar denotativ tarzda uzatilganda esa kommunikatsiya (muloqot) akti haqidagi ma'lumotlar konnotativ tarzda aks ettiriladi. Bu yerda tilning stilistik (uslubiy) tizimi orqali uzatiladigan konnotativ ma'nolar haqida gap ketmoqda. Bu axborot uzatishning ikki kanali tilning turli ko'rinishlarida, ya'ni aniq kommunikatsiyalarda muvaffaqiyatli ishlashi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi masalasiga oydinlik kiritadi. Odamlarning barcha kommunikativ aktlari bir turdagi vaziyatlar to'plamidan iborat. Ularni lisoniy ko'rib chiqish muloqot komponentlariga bog'liq bo'lmagan, ammo muvaffaqiyatli muloqot uchun muhim bo'lgan belgilarni aniqlaydi. Ushbu belgilar xabarni qabul qilishga, uni baholashga va javob reaksiyasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Aynan tilda mustahkamlangan ushbu xarakterli xususiyatlar stilistika tizimida konnotativ ma'no darajasida tasvirlanadi. Shunday qilib, konnotatsiya denotativ tarzda uzatilgan xabar u bilan birgalikda qabul qilinishi kerak bo'lgan minimal zarur axborotni aks ettiradi.

Denotatsiya va konnotatsiya haqli ravishda juftlikda, ko'pincha, antonimik juftlik a'zolari sifatida ko'rib chiqiladi, ammo «konnotatsiya» terminining talqin qilinishiga qarab, ikkinchi termin ham o'z ma'nosini o'zgartiradi. Denotatsiya va konnotatsiya ularning umumiy o'zagida aks etgan umumiy mazmunga ega. Nutqda denotativ tushuncha – ushbu tilning barcha sohiblari uchun umumiy, konnotatsiya esa har bir inson-

da individual bo‘lgan assotsiativ ma’nodir. Denotat tushunchani mantiq darajasida aks ettirishga xizmat qilsa, konnotat munosabatni baholash uchun xizmat qiladi”.

Pretsedent birliklar sarlavhalar tarkibida kelganda, ularning denotativ (asl) ma’nosi va maqolada ifodalanayotgan aktual (yangi) ma’nosi o‘rtasida o‘ziga xos ziddiyat yoki bog‘liqlik yuzaga keladi. Quyida 2025-yilgi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni yoritgan sarlavhalar asosidagi tipik modellarni ko‘ramiz: *"Tempête à la Maison-Blanche: les alliés cherchent un abri"* [5].

Ushbu sarlavhaning denotativ ma’nosi: Oq uyda dovul (kuchli shamol) bo‘lmoqda, ittifoqchilar esa yashirinish uchun bino (boshpana) qidirishyapti deb ifodalansa, konnotativ ma’nosi: "tempête" (bo‘ron) – AQSH ma’muriyatidagi siyosiy keskinlik va kutilmagan qarorlar. "Abri" (boshpana) esa boshqa davlatlarning o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yangi diplomatik choralar izlayotganini anglatadi.

"La Lune: le nouveau Far West des géants de la tech".

Denotativ ma’nosi: Oy: texnologiya gigantlarining (ulkan kompaniyalarning) yangi Yovvoyi G‘arbi deb tarjima qilingan holda ifodalansa, konnotativ ma’nosi**:** Oy – shunchaki Yer yo‘ldoshi emas, u yangi biznes maydoni. Uni "Far West" (Yovvoyi G‘arb) deb atash orqali jurnalist Oyda hech qanday qonun-qoidalarsiz, tartibsiz ravishda boylik va hududlar uchun shafqatsiz kurash boshlanganini ifodalaydi.

"Un Waterloo électoral pour la gauche".

Denotativ ma’nosi: Chap qanot siyosiy partiyalari uchun Vaterloo qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan saylov deb ifodalansa, konnotativ ma’no**:** Siyosiy maydonda chap qanot partiyalarining to‘liq, qayta tiklab bo‘lmaydigan va sharmandali mag‘lubiyatga uchraganini anglatadi. "Waterloo" so‘zi fransuz ongida har qanday yirik halokat va mag‘lubiyatning ramzidir.

"Retraites: le gouvernement a ouvert la boîte de Pandore".

Denotativ ma’nosi: Pensiya tizimi masalasida hukumat Pandora ismli qahramonning jismoniy qutisini ochdi deb ifodalansa, fransuz hukumati pensiya islohotini boshlab, jamiyatda kutilmagan, nazorat qilib bo‘lmaydigan juda ko‘p muammolar, tartibsizliklar va noroziliklar zanjirini keltirib chiqarganini anglatishi konnotativ ma’nosidir.

O‘zbek matbuotida maqollar sarlavha sifatida juda faol qo‘llanadi: *“Yaxshi niyat– yarim davlat”* [7] (Masalan, 2025-yilda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yoki yangi islohotlar boshlanishiga bag‘ishlangan tahliliy maqola). Insonning ichki ezgu niyati va maqsadlari moddiy boylik (davlat) kabi qimmatlidir, yaxshi niyat muvaffaqiyat garovidir. Maqolaning asl lug‘aviy (denotativ) ma’nosidan kelib chiqib, davlat tomonidan xalq uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar yaxshi samara berishiga ishora qilinadi.

“Bir yoqadan bosh chiqarib...” (Hududlarni obodonlashtirish yoki umumxalq hasharlariga doir sarlavha). To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi – kiyimning (to‘nning) bir yoqasidan birgalikda bosh chiqarish. Ko‘chma, turg‘un ma’nosi – hamjihatlikda, birlashib harakat qilish.

“Bugungi kunning ma’rifatparvar jadidlari”. XX asr boshlarida Turkistonda yashab o‘tgan, xalqni uyg‘otishga intilgan ijtimoiy-siyosiy harakat vakillari (Behbudiy, Fitrat va b.). Sarlavhada bu pretsedent nom orqali bugungi kun o‘qituvchilari yoki ilm-fan fidoyilariga nisbat beriladi. O‘quvchi ongida o‘sha davr fidoyilari haqidagi tayyor bilim uyg‘onadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, sarlavhadagi birlikning denotativ (lug‘aviy/asl) ma’nosi matndagi yangi voqelikka ko‘chirilib, nominativ ko‘rsatuvchilik va aniqlik prinsiplariga tayanadi. Bu esa qisqa sarlavha orqali butun bir maqolaning asosiy g‘oyasini o‘quvchiga lo‘nda va ta’sirchan qilib yetkazib berishga xizmat qiladi. Konnotativ ma’nosi orqali esa o‘quvchi e’tiborini jalb qilish, xarakterlash, baholash, madaniy-kontekstual aloqalar yaratish, emotsional ta’sir o‘tkazish vazifalari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). A.Berdialiyev, I.Ermatov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «Turon-iqbol», 2021, 27–29-betlar.

(2). Бубнова Н.Д. (2006). Претседентне эдинитсй в современном обшчестве. Сотсиокулътурологический аспект. Москва, “Макс Пресс”, 216 с.

(3). Гудков Д.Б. (2003). Теория и практика мезҳкултурной коммуникатсии. Москва, ИТДГК “Гнозис”, 286 с.

(4). Kovshova M.L. Precedent text in a modern newspaper headline as intellectual entertainment. Logical analysis of language. Conceptual game fields. M., 2006, p. 421–428.

(5). Le Monde Archives. 2025. URL: https://www.lemonde.fr/archives-du-monde/20-12-2025/

(6). Tukliyeva G.N. (2023). The Role of Precedent Phenomena in Media Materials // International Journal of Studies in Advanced Education, 24 p.

(7). “Xalq so‘zi”, Archives 2025. UERL: https://press.natlib.uz/ru/publications/xalq-sozi

(8). Yakubova S.H. (2024). Pretsedent birlik va pretsedent nom, ularning o‘zbek lingvomadaniy jamiyatida qo‘llanilishi. Euroasian jounal of technology and innovaton. 81 p.

(9). Zemskaya E.A. Citation and types of its transformation in the headlines of modern newspapers. Poetics. Stylistics. Language and culture. M., 1996, 338 p.

(10). Абдуллаев Х.Б. К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация». ДжГПИ, 2023, 3 с.

(11). Земская Е.А. Язык как деятельность. Морфема. Слово. Речь. М., “Языки славянской культуры”, 2004, 121 с.

(12). Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М., “Наука”, 1987, 216 с.

(13). Красных В.В., Гудков Д.Б., Захаренко И.В., Багаева Д.В. Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации. “Вестник МГУ”, сер. Филология. 1997, № 3, 62 с.

(14). Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. М., “Litres”, 2017, 21 с.

(15). Наволоцкая О.В. Прецедентность в заголовках медиа: сопоставительный аспект. “Ученые записки Новгородского государственного университета”, 2022, № 6 (45), 685 с.

(16). Ревзина О.Г. О понятии коннотации. Языковая система и её развитие во времени и пространстве. Сборник научных статей, М., 2001, с. 436–446.

(17). Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. М., “Академия”, 2004, 343 с.

(18). Серпикова М.Б. Язык СМИ как объект лингвистического исследования. “Гуманитарные науки: научное сообщество студентов XXI столетия”, 2017, № 8 (56), с. 45–49.

(19). Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М., “Academia”, 2000, 128 с.

(20). Фоменко Е.С. Американские культурные символы – прецедентные феномены в дискурсе современных СМИ. “Филологические науки”, Вопросы теории и практики. 2015, № 3-1 (45), с. 204–208.

Norova Farzona G‘ayrat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi;
E-mail: farzona.norova@yandex.ru)

XITOY TILIDAGI AJRATILADIGAN SO‘ZLAR (离合词) MOHIYATINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xitoy tilidagi “ajratiladigan so‘zlar” (离合词líhécí) ontologik jihatdan o‘rganilib, ularning mohiyatini tasniflovchi nazariy qarashlar ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, “ajratiladigan so‘zlar” mohiyati borasida xitoy tilshunosligi doiralarida to‘rtta nazariy qarash borligi aniqlandi va ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar*: ajratiladigan so‘z, xitoy tili, nazariy tahlil.*

Норова Фарзона Гайрат кизи (Ташкентский государственный университет востоковедения, преподаватель)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИРОДЫ РАЗДЕЛЯЕМЫХ СЛОВ (离合词) В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье исследуется онтология «разделяемых слов» (离合词líhécí) в китайском языке, а также вкратце рассматриваются теоретические взгляды, классифицирующие их сущность. Согласно результатам анализа, было установлено, что в кругах китайского языкознания существуют четыре теоретические точки зрения относительно сущности «разделяемых слов».*

Ключевые слова*: разделяемые слова, китайский язык, теоретический анализ.*

Norova Farzona Gairat kizi (Tashkent State University of Oriental Studies)

THEORETICAL ANALYSIS OF THE ESSENCE OF SEPARABLE WORDS (离合词) IN CHINESE

Annotation*. This article examines the ontological nature of “separable words” (离合词 líhécí) in Chinese and reviews and analyzes the theoretical perspectives that classify their essence. According to the results of the analysis, it was determined and examined that there are four theoretical viewpoints in Chinese linguistics regarding the nature of “separable words.”*

Key words*: separable words, Chinese, theoretical analysis.*

Kirish. Ajratiladigan so‘zlar (离合词líhécí) xitoy tili leksikasining muhim qismi bo‘lib, xitoy tilini o‘rganuvchilar o‘rganishi zarur bo‘lgan lingvistik birlik hisoblanadi. Ularning mohiyati noodatiy bo‘lib,